

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

# **ILM SARCHASHMALARI**

*Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*

**4.2022**

**научно-теоретический методический журнал  
Издаётся с 2001 года**

**Urganch – 2022**

Bosh muharrir, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **YO‘LDOSHEV Ro‘zimboy**

**TAHRIR HAY‘ATI:**

**ABDULLAYEV Bahrom**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**ABDULLAYEV Ikrom**, biologiya fanlari doktori, professor (Xorazm Ma‘mun akademiyasi),  
**ABDULLAYEV Ilyos**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**ABDULLAYEV Ravshanbek**, tibbiyot fanlari doktori, professor (TATU UF),  
**ABDULLAYEV O‘tkir**, tarix fanlari doktori (UrDU),  
**ALEUOV Userbay**, pedagogika fanlari doktori, professor (Nukus davlat Pedagogika instituti),  
**BERDIMUROTOVA Alima**, falsafa fanlari doktori, professor (QDU),  
**DAVLETOV Sanjarbek**, tarix fanlari doktori (UrDU),  
**DO‘SCHONOV Tangribergan**, iqtisod fanlari doktori, professor (UrDU),  
**HAJIYEVA Maqsuda**, falsafa fanlari doktori, professor (UrDU),  
**IBRAGIMOV Zafar**, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (PhD, UrDU),  
**IBRAGIMOV Zair**, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, AQSH),  
**IMOMQULOV Sevdiyor**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**JUMANIYAZOV Maqsud**, texnika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**JUMANIYOZOV Otaboy**, filologiya fanlari nomzodi, professor (UrDU),  
**KALANDAROV Aybek**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD, mas‘ul kotib, UrDU),  
**KAVALYAUSKAS Vidas**, gumanitar fanlar doktori, professor (Litva universiteti),  
**NAVRUZOV Qurolboy**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**OLLAMOV Yarash**, yuridik fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xorazm viloyatidagi Xalq qabulxonasi bosh mutaxassisi),  
**OTAMURODOV Sa‘dulla**, falsafa fanlari doktori, professor (Toshkent, Kimyo-texnologiya instituti),  
**PRIMOV Azamat**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (UrDU),  
**QUTLIYEV Uchqun**, fizika-matematika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**RO‘ZIYEV Erkinboy**, pedagogika fanlari doktori, professor (UrDU),  
**SADULLAYEV Azimboy**, fizika-matematika fanlari doktori, akademik (O‘zMU),  
**SADULLAYEVA Nilufar Azimovna**, filologiya fanlari doktori (O‘zMU),  
**SAGDULLAYEV Anatoliy**, tarix fanlari doktori, akademik (O‘zMU),  
**SALAYEV San‘atbek**, iqtisod fanlari doktori, professor (Xorazm viloyati hokimligi),  
**SALAYEVA Muxabbat**, pedagogika fanlari doktori (UrDU),  
**SATIPOV G‘oipnazar**, qishloq xo‘jalik fanlari doktori, professor (UrDU),  
**XODJANIYOZOV Sardor**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (bosh muharrir o‘rinbosari, UrDU),  
**YOQUBOV Jamoliddin**, filologiya fanlari doktori, professor (O‘zDJTU),  
**O‘ROZBOYEV Abdulla**, filologiya fanlari doktori (UrDU),  
**O‘ROZBOYEV G‘ayrat**, fizika-matematika fanlari doktori (UrDU),  
**G‘AYIPOV Dilshod**, filologiya fanlari doktori, dotsent (UrDU).

**JURNAL 2001-YILDAN CHIQA BOSHLAGAN•JURNAL  
OYDA BIR MARTA NASHR QILINADI•2022 4(178)**

**MUASSIS:** Urganch davlat universiteti • Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2020-yil 11-noyabrda ro‘yxatdan o‘tgan • **GUVOHNOMA № 1131.**

davomiyligi 30 minut (shu vaqt, tayyorgarlik qismi 5 daqiqa, asosiy qismi 15–20 daqiqa, yakuniy qismi – 5 daqiqa). Uch oy davomida haftasiga ikki marta amalga oshirildi.

Mashg'ulotlarning tuzilishi uch qismdan iborat edi:

1) mashg'ulotning birinchi qismi (kirish qismi) tayyorgarlik, uning maqsadi tanani qizitish va umumiy rivojlantiruvchi; 2) ikkinchi qism (asosiy) egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mashqlar majmuyini o'z ichiga oladi; 3) uchinchi qism (yakuniy) – harakatchan, kamharakat, musiqiy va ritmik o'yinlar.

Eksperimentning nazorat bosqichida tadqiqot natijalari to'g'risida ma'lumot olish uchun egiluvchanlikni rivojlantirish darajasining takroriy sinovi o'tkazildi. 7 yoshli bolalarda egiluvchanlikni rivojlantirish uchun statik-stretching mashqlardan foydalanish samaradorligini aniqlash uchun gistogramma tuzildi, unda dastlabki va yakuniy sinov natijalarini qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, umurtqa pog'onasi va tos-son bo'g'imlarimushaklari harakatchanligi testida, egiluvchanlikni rivojlantirish darajasini nazorat sinovlaridan o'tkazildi. Birlamchi va nazorat sinovlari natijalariga ko'ra studentning t-testi bo'yicha farqlarning ishonchliligini aniqlashga qaror qilindi, ya'ni, egiluvchanlikni rivojlantirishda tanlangan statik-stretching mashqlardan iborat tajriba dasturining samaradorligini isbotladi.

Tanlangan namunalar bo'yicha vositalar farqining ishonchliligini aniqlash uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$t = \frac{M_d}{\sigma_d/\sqrt{n}}$$

bu yerda:  $M_d$  – ko'rsatkichlar farqi arifmetik o'rtacha va undan keyin;  $\sigma_d$  – ko'rsatkichlar farqlarining standart og'ishi;  $n$  – tajribalar soni.

Tajribadan oldingi belgining o'rtacha qiymati  $5.266 \pm 0.695$ ga teng.

Tajribadan keyingi belgining o'rtacha qiymati  $7.209 \pm 0.655$ ga teng.

ishonchlilik darajalari soni ( $f$ ) tenglik 14 student t mezoni – testi 12.185ga teng.

Berilgan erkinlik darajalari uchun Student t-testining ishonchlilik qiymati 2,144 ga teng.  $t$  kuzat >  $t$  krit belgining o'zgarishi statistik ahamiyatga ega ( $p < 0.05$ ).

Xulosa qilinganda dastlabki ma'lumotlar va yakuniy natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, barcha ko'rsatkichlarning o'rtacha qiymati oshdi. O'rtacha qiymat 35,6 foizga o'sdi. O'rtacha qiymatlarni studentning t-testi bo'yicha farqlarning ishonchliligini aniqlagan holda, farqlar ishonchliligi ( $t=2.1$ ) aniqlandi. 7 yoshdagi bolalarda statik-stretching mashqlar orqali egiluvchanlikni rivojlantirish uchun jismoniy mashqlar komplekslarini eksperimental sinovdan o'tkazish natijasida barcha bolalar natijalari yaxshilanganligi va ijobiy dinamikasi qayd etilgan. Studentning t-testi bo'yicha farqlarning ishonchliligi qiymatlarini hisoblashda jismoniy tarbiya statik-stretching mashqlar orqali egiluvchanlikni rivojlantirish uchun hisoblangan qiymat, chegara qiymatidan yuqori bo'lib, bu bizga egiluvchanlikni qulay rivojlanishi uchun tanlangan texnikaning samaradorligi to'g'risida izohlash imkonini beradigan birlamchi va nazorat sinovlari o'rtasidagi farqlarning ishonchliligi haqida ma'lumot beradi.

**Turdieva Mohira Jo'raqulovna (Buxoro davlat universiteti)**

**Maktabgacha ta'lim kafedrasida o'qituvchisi; mohira.turdiyeva@bk.ru)**

## **MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI "TIL VA NUTQ" MARKAZIDA TARBIYALANUVCHILARNING IJODIY QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH**

*Аннотация. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglari oldida turgan dolzarb masalalardan biri tarbiyalanuvchilarning nutqiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning ijodiy qobiliyatlarini yanada o'stirish, muloqotga tayyorlash va shu orqali badiiy rivojlanish, dunyoni badiiy tasavvur etish ko'nikmalarini shakllantirishdir. Ushbu maqolada tarbiyalanuvchilar nutqini rivojlantirish ularning nutqini yangi, yanada murakkab va keng qirralarini o'zlashtirish masalalari va metodlari haqida fikr yuritilgan.*

*Аннотация. Одна из наиболее актуальных задач, стоящих сегодня перед педагогами дошкольного образования, – это дальнейшее развитие их творческих способностей за счет развития речевых навыков учащихся, подготовка их к общению и, таким образом, развитие художественного мастерства, способности художественно представлять мир. В этой статье обсуждаются вопросы и методы развития речи учащихся для освоения новых, более сложных и более широких аспектов своей речи.*

**Annotation.** One of the most pressing tasks facing preschool teachers today is the further development of their creative abilities through the development of students' speech skills, preparing them for communication and, thus, the development of artistic skills, the ability to artistically represent the world. This article discusses speech development issues and techniques for learners to master new, more complex, and broader aspects of their speech.

**Kalit soʻzlar:** maktabgacha taʼlim, tarbiya, tarbiyachi, nutq, muloqot, ijodiy rivojlanish, taʼlim, agrammatizm, nutqiy aloqa, oʻyin, didaktik oʻyinlar, taʼlimiy topshiriqlar, bilish kompetensiyalari.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, воспитатель, речь, общение, творческое развитие, образование, аграмматизм, речевое общение, обучение, игра, дидактические игры, учебные задания, познавательные компетенции.

**Key words:** preschool education, educator, speech, communication, creative development, education, agrammatism, verbal communication, learning, play, didactic games, educational tasks, cognitive competencies.

Bugungi kunda davlat maktabgacha taʼlimdagi zamonaviy talablar va tarbiyalanuvchining shaxsiga yoʻnaltirilgan taʼlim jarayonining mazmunini, uni tashkil etish toʻgʻrisidagi yangi tushunchalarni belgilab berdi. Unga koʻra, maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalarni oʻqitish va tarbiyalash bolaning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini kompleks rivojlantirish asosiy maqsad sanaladi.

“Ilk qadam” davlat oʻquv dasturining III bobi – maktabgacha yoshdagi bolalarga taʼlim berishda kompetensiyaviy yondashuv deb nomlanib, dasturning majburiy 5 ta taʼlim sohasini oʻz ichiga olgan.

- «Jismoniy rivojlanish va sogʻlom turmush tarzini shakllantirish» sohasi kompetensiyalari;
- ◆ «Ijtimoiy-hissiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari;
- «Nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari» sohasi kompetensiyalari;
- «Bilish jarayonining rivojlanishi» sohasi kompetensiyalari;
- «Ijodiy rivojlanish» sohasi kompetensiyalari;

Eʼtibor beradigan boʻlsak, 5 ta rivojlanish sohasining aynan bittasi nutq, muloqot, oʻqish va yozish malakalari sifatida belgilangan. Shuningdek, yana bir yoʻnalish – ijodiy rivojlanish etib belgilangan. Kichik sohalarda esa 6 ta rivojlanish indikatorlari belgilangan. Bular quyidagilar:

1. Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.
2. Nutq va til.
3. Oʻqish malakalari.
4. Qoʻl barmoqlari mayda motorikasi.
5. Dunyoni badiiy tasavvur etish.
6. Badiiy-ijodiy qobiliyatlar.

Koʻrindiki, maktabgacha taʼlim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning rivojlanishiga qoʻyiladigan talablarda til, nutq, muloqot, badiiy rivojlanish, dunyoni badiiy tasavvur etish yoʻnalishlari yetakchilik qiladi. Oʻrganishlarimiz natijasida maʼlum boʻldiki, bolaning maktab taʼlimiga tayyorgarlik indikatorlaridan eng muhim va alohida ahamiyatga ega boʻlgani tarbiyalanuvchilarda faol nutqiy koʻnikmalar va badiiy tasavvurlarni shakllantirish hisoblanadi.<sup>1</sup> Boisi, nutqi ravon bola maktab taʼlimi uchun zarur boʻlgan malakalarni namoyish eta oladi, yaʼni oʻylagan fikrlarini erkin va tutilmasdan bayon etadi.

Demak, bolalarning aqliy jarayonini rivojlantirish uchun ularning nutqini oʻstirish kerak. Bolaning har bir soʻzning maʼnosini tushunishi, uni nutqida erkin ifoda etishga mos boʻlishi kerak.<sup>2</sup> Tushunchalar tizimiga moslashgan bola oʻz fikrlarini umumlashtirish va bayon qilishni oʻrganadi. Ayni jarayonda tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini badiiy asarlarni innovatsion usullardan foydalangan holda tanishtirish, ularning qiziqishlari va badiiy tasavvurlarini tarbiyalabgina qolmay, ularning bogʻlanishli nutqini ham faol ravishda shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Afsuski, bugungi kunda badiiy asarlar (ham nasriy, ham nazmiy) namunalarini bolalarga oʻrgatishning innovatsion usullarini amaliyotda foydalanishga moʻljallangan mediamateriallar, koʻrgazmalar yetarli emas.<sup>3</sup> Buning asosiy sababi shundaki, ilmiy va uslubiy

<sup>1</sup>Турдиева М.Ж. Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантиришнинг инновацион методлари. Методик қўлланма, Бухоро, 2021.

<sup>2</sup> Райова Н.В. Умумий нутқи кам ривожланган болаларда тасвирий санъат маҳоратини ривожлантириш усуллари. М., “Сфера”, 2011.

<sup>3</sup> Erxonova N.A., Roʻziyeva Z. Tarbiyachi kitobi. Nutq oʻstirish. Toshkent, «DAVR PRESS», 2020.

jihatdan badiiy asarlarni innovatsion usullar asosida o'rgatishga asoslangan nutqni rivojlantirish tizimi ha-li ishlab chiqilmagan.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ona tilini o'qitishning turli xil yondashuvlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, nutq o'stirishning nazariy va amaliy muammolarini o'rganish quyidagi nazariy tamoyillarni tan olishdan kelib chiqadigan umumiy nuqtaga ega:

- nutq o'stirishning asosi kommunikativ yondashuv bo'lishi kerak;
- ta'lim shartlari tabiiy aloqa sharoitlariga yaqinroq bo'lishi kerak;
- motivatsiya asosidagi topshiriqlar bolalar ijodkorligini tarbiyalashi kerak.<sup>1</sup>

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish va ularga badiiy asar namunalarni o'rgatish sohasidagi psixologik-pedagogik tadqiqotlarning tahlili quyidagicha xulosa qilishga imkon beradi, nutqni rivojlantirish – bu bolada markaziy rol o'ynaydigan ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirishning juda murakkab va ko'p qirrali jarayoni, individual rivojlanish. Bu o'z-o'zidan paydo bo'ladigan jarayon emas, balki pedagogik rahbarlikni taklif qiluvchi ijodiy jarayondir. Bolaning nutqni rivojlantirish jarayonini boshqaradigan tarbiyachi-pedagog ushbu ta'limiy sharoitning qonuniyatlari, mexanizmlari va xususiyatlarini bilishi va nutqiga ta'sir ko'rsatishning eng samarali usullarini tanlashi kerak. Bolaning nutqini rivojlantirish ko'p jihatdan uning ruhiyatiga, ijtimoiylashuviga bog'liq.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutqni rivojlantirish – bu nafaqat bola eshitgan nutqqa taqlid qilish, balki murakkab psixologik jarayon. Ushbu jarayon, umuman, bolalarda aloqa faoliyatini rivojlantirish, avvalambor, muloqotga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq bo'ladi. Bolaning so'z boyligini kengaytirish unga o'z tajribalarini yanada kengroq va xilma-xil ifodalashni o'zlashtirishga imkon beradi. Bolaning ma'naviy shakllanishida nutqning hal qiluvchi rol o'ynashi uning turli bosqichlarda rivojlanishiga hissa qo'shadigan shart-sharoit va omillarning ahamiyatini yanada oshiradi. Nutqni rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchlari masalasi ham ularning tez va to'satdan amalga oshirilganligi sababli alohida ahamiyatga ega. Bolalarning nutqini rivojlantirishni rag'batlantiradigan yoki sekinlashtiradigan kuchlarni aniqlash bu jarayonda aniq maqsadni nazarda tutgan holda, pedagogik harakatlarni tashkil etishning kalitidir.

Bolalarning ertak, afsona, hikoya, matal, maqol, tez aytish, topishmoq, she'rlar orqali adabiy tilni o'zlashtirishi natijasida ularning to'g'ri og'zaki nutqini shakllantirish maktabgacha ta'limning asosiy vazifalaridan biridir. Ushbu umumiy vazifa quyidagi maxsus vazifalardan iborat:

- nutqning tovushli madaniyatini rivojlantirish;
- so'z boyligini boyitish, mustahkamlash va faollashtirish;
- ◆ nutqning grammatik jihatdan to'g'riligini oshirish;
- og'zaki (dialogik) nutqni shakllantirish;
- ravon nutqni rivojlantirish;
- badiiy nutqqa qiziqish;
- savodxonlikka tayyorlash.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutq o'stirish ta'limiy faoliyatlari faollik markazlari bilan bir qatorda, frontal ta'limiy faoliyatlarda ham olib borilishi mazkur vazifaning qanchalik muhimligini belgilaydi. Xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarining kichik guruhlarida haftada bir marta, o'rta guruhlarida haftada 2 marta, katta guruhlarida haftada 2 marta va tayyorlov guruhlarida haftada bir soat nutq o'stirish va bir soat savod o'rgatish ta'limiy faoliyatlari olib borilishi belgilangan. Nutq o'stirish bo'yicha ta'limiy faoliyatlar har bir guruhda bolalarning yoshi va har bir bolaning nutqining rivojlanish darajasini hisobga olingan holda o'tkazilishi zarur. Chunki bilimlarning mazmuni, ularning tarkibi, uslub va usullarini tanlash, haftada mashg'ulotlar soni, har bir mashg'ulotning davomiyligiga bog'liq bo'ladi. 5 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun nutq o'stirish ta'limiy faoliyatlari o'ziga xos funksiyaga ega, ya'ni bolalarni maktabga tayyorlashni o'z ichiga oladi. Bolalar gapirish va muloqot vazifalaridan tashqari, badiiy asarlarni tinglash, tushunish, hikoya qilib berish ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar.

7 yoshga kelib, bola quyidagilarni bajara oladi:

- bola og'zaki nutqni o'zlashtirishi, kattalar va tengdoshlari bilan erkin muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- dialogda tashabbus ko'rsatib fikr bildiradi, suhbatdoshning e'tiborini jalb qila oladi, unga so'zlar, harakatlar va og'zaki bo'lmagan usullar bilan javob beradi;
- o'z fikrlarini to'liq va to'liq bo'lmagan sodda jumlar, qisqa matnlar shaklida ifoda eta oladi;

<sup>1</sup> Турдиева М.Ж. Shu manba.

●tanish ertaklarni aytib berish, multfilmlar, kitoblar mazmunini aytib berish va har qanday voqea-ni to'qib berishga qiziqish;

●iboralarda nutqning turli qismlari, metafora, taqqoslash va sinonimlardan foydalanadi;

●nutqqa tanqidiy munosabatda bo'lishni boshlaydi, grammatik jihatdan to'g'ri gapirishga intiladi, natijada so'z to'qish to'xtaydi, agrammatizmlar soni kamayadi.

Bolalardagi nutqiy aloqa va ko'nikmalarning aksariyati badiiy asarlar vositasida shakllanadi.<sup>1</sup> Ularning qiymati shundaki, u ijobiy his-tuyg'ularni yaratadi, bu esa, o'z navbatida, nutqiy kompetensiyalarning rivojlanish darajasiga ta'sir qiladi. Quvonch, hayajon hissi, ta'sirlanish holati, g'ayrioddiy narsani kutish bolalarning qabul qilish qobiliyatini oshiradi, nutqning ta'sirchanligiga ta'sir qiladi. Ertaklarni eshitishda bolalar ko'p savollar berishadi, o'z taassurotlarini boshqalarga aytib berishga shoshilishadi.

Shunday qilib, bolalar bilan ishlashda tarbiyachi quyidagilarga e'tibor qaratishlari kerak:

●ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish, nutqdagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish;

●aniq, tushunarli nutqqa, ya'ni yaxshi diksiyaga ega bo'lish;

●nutqida adabiy talaffuzlardan foydalanish, ya'ni orfoepik qoidalarga amal qilish;

●ifoda etilgan fikrlarni hisobga olgan holda, intonatsion ifoda vositalaridan to'g'ri foydalanishga intilish;

●bolalar bilan muloqotda biroz sekinroq sur'atlarda, ovozni ozgina pasaytirib gaplashish;

●so'zlar va grammatik tuzilmalar yordamida bolalarga matnlarning mazmunini ravon va tushunarli tarzda bayon etish va yetkazish.

Xulosa qilib aytganda, nutqni rivojlantirish muammosi quyidagi faoliyat turlarida hal qilinadi: o'yin, o'quv va bilim. O'yin faoliyati maktabgacha yoshda yetakchi faoliyatdir. O'yin paytida bola bilimlarni to'playdi,<sup>2</sup> tilni o'rganadi, muloqot qiladi, fikrlash va tasavvurni rivojlantiradi, ammo ta'limiy topshiriqlar o'yin muhitida olib borilsa, bolaning bilish kompetensiyalari yanada rivojlanadi.

**Тураев Ёлқин Шерзод ўғли (Қарши Давлат университети Физиология кафедраси ўқитувчиси)  
МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ТАБИАТ БИЛАН ТАНИШТИРИШ  
МЕТОД ВА ВОСИТАЛАРИ**

***Аннотация.** Ушбу мақолада мактабгача катта ёшдаги болаларни табиат билан таништириш метод ва воситалари ҳақида сўз боради. Муаллиф педагогик маълумотларга таяниб, мавжуд илмий адабиётлар асосида муаммони таҳлил қилган ва мактабгача катта ёшдаги болаларни табиат билан таништириш метод ва воситалари бўйича мавжуд ўзига хос жиҳатларини ўрганган.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются методы и средства приобщения детей дошкольного возраста к природе. Опираясь на педагогические данные, автор анализирует проблему на основе имеющейся научной литературы и исследует специфику методов и средств приобщения дошкольников к природе.*

***Annotation.** This article discusses the methods and means of acquainting preschool children with nature. Based on pedagogical data, the author analyzes the problem on the basis of existing scientific literature and explores the specifics of the methods and means of acquainting preschool children with nature.*

***Калим сўзлар:** мактабгача таълим, болалар, табиат, ахлоқий тарбия, дунёқараш, экологик билимлар, маънавият.*

***Ключевые слова:** дошкольное воспитание, дети, природа, нравственное воспитание, мировоззрение, экологические знания, духовность.*

***Key words:** Preschool education, children, nature, moral education, worldview, environmental knowledge, spirituality.*

Болалар боғчасида болаларни табиат билан таништириш жараёнида турли методлардан фойдаланилади. Табиат билан таништириш методлари учта асосий гуруҳга бўлинади:

●кўрғазмали услуб – кузатиш, расмларни кўриш, диафильм, кинофильм, экскурсиялар;

<sup>1</sup> Erxonova N.A., Ro'ziyeva Z. Tarbiyachi kitobi. Nutq o'stirish. Toshkent, «DAVR PRESS», 2020.

<sup>2</sup> Erxonova N.A., Ro'ziyeva Z. Tarbiyachi kitobi. Didaktik o'yinlar. Toshkent, «DAVR PRESS», 2019.

<b>Nurmamatov Zuxriddin Shavkat o'g'li.</b> Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlash texnologiyasi.....	101
<b>Шопулатов Абдималик Нуруллаевич.</b> Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида илмий тадқиқот натижаларини амалиётга татбиқ этиш механизмларини такомиллаштириш.....	103
<b>Qarshieva Dilbar Eshpo'latovna.</b> Zamonaviy pedagogikada amaliyotni tashkil etishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	107
<b>Kamolov Iftixor Baxtiyorovich, Qurbonova Mohigul Shoniyozovna.</b> Bolalarda musiqani badiiy his etishlarini rivojlantirishda o'yin folklor janridan foydalanishning ahamiyati.....	110
<b>Asilbekov Nurjon Baxtiyarovich.</b> Talaba-yoshlarni ta'lim-tarbiya jarayonida kasbiy va o'zini-o'zi tarbiyalash omillari.....	113
<b>Otamuratova Saodat Shonazarovna, Eshchanov Erkabay Uskinovich, Masharipov Azamat Tursinboyevich.</b> Organik kimyo kursining "to'yingan bir atomli spirtlar" mavzusini o'qitishda rolli o'yinlardan foydalanish.....	116
<b>Ibraximov Sanjar Urunbayevich.</b> Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak pedagog-murabbiylarni tayyorlashning dolzarb yo'nalishlari.....	121
<b>Ziyatov Muhammad Namazovich.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirishda statik-streching mashqlardan foydalanish texnologiyalari.....	124
<b>Turdieva Mohira Jo'raqulovna.</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlari "Til va nutq" markazida tarbiyalanuvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.....	127
<b>Тураев Ёлқин Шерзод ўғли.</b> Maktabgacha katta ёшдаги болаларни табиат билан таништириш метод ва воситалари.....	130
<b>Allaberganova Muyassar Rimberganovna, Hamrayeva Saida Ismailovna, Ravshanqulov Abbos Ravshanqul o'g'li, Olloberganova Muyassar Davlatboy qizi.</b> Ta'lim jarayonida google xizmatlaridan foydalanish.....	133
<b>Mattiev Ilhom Begmatdulobovich.</b> "Health Care" tafakkurini shakllantirishda o'qituvchi kompetensiyasi va uning ahamiyati.....	137
<b>Абдуганиева Джамиля Рустамовна.</b> Методика обучения последовательному переводу студентов языковых ВУЗов.....	139

#### ILMIY AXBOROT

<b>Отамуродова Дилафруз.</b> Француз тилида диалоглар мулоқот шакли сифатида қўлланишининг айрим хусусиятлари.....	151
<b>Fayzullayeva Muhayo Raxmatillayevna.</b> Diniy markerlangan alluziyalarning badiiy matnda konsept sifatida gavalanishi.....	153
<b>Allayorov To'liqin Ro'ziqulovich.</b> Nasriy asarlarda qo'llanilgan so'roq birliklarining lingvopoetik xususiyatlari.....	156
<b>Hakimboy Matyoqubov.</b> O'zbek va ingliz tillarida eski va yangi tushunchalari zidligi asosidagi toponimlar.....	159
<b>Tuychiyev Adxamjon Tuxtaboyevich.</b> Xorijiy va mahalliy adabiyotlarda tanqidiy fikrlash masalalari.....	162
<b>Якубова Матлуба.</b> Эркин Самандар шеърлятида архаик қатлам.....	165
<b>Nuritdinova Shoira Xamidovna.</b> Nemis va o'zbek tillarida qo'shma otlar yasalishining o'ziga xos xususiyatlari.....	169
<b>Xalilova Shaxlo Jalilovna.</b> O'zbek va ingliz xalq ertaklarining umumiy o'xshashliklari.....	171
<b>Гафуров Бахтиёр Закирович.</b> Текст рекламы гигиенических средств и его лексико-тематические группы.....	174
<b>Уринова Шахло Абдихалимовна.</b> Место интернационализмов среди заимствованной лексики.....	178
<b>Тохтиева Регина Шамильевна.</b> Концепт "женщина" в русских и узбекских пословицах.....	181
<b>Абдувахובה Умида.</b> Прагматические аспекты перевода художественного текста.....	183
<b>Агзамходжаева Шахноза Саидматлабовна.</b> Алишер Навои и предпринимательство.....	186
<b>Ахмедова Нилуфар Мамасидиковна.</b> Диагностический инструментарий оценки уровня сформированности алгоритмической компетентности в процессе дифференциального обучения у будущих педагогов начальных классов.....	189
<b>Polvanova Makhzuna Farxadovna.</b> Semantic Analysis of Phraseological Units Containing Currency in their Components in English and Russian Languages.....	192
<b>Акрамова Тахмина.</b> Romantic Writers' Groundbreaking in the Short Story Genre.....	195

# “ILM SARCHASHMALARI”

Urganch davlat universitetining ilmiy-nazariy, metodik jurnali

Muharrir **Ro‘zimboy Yo‘ldoshev**  
Texnik muharrir **Sherali Yo‘ldoshev**  
Musahhihlar: **Туримова Тамара,**  
**Aybek Kalandarov**  
Ushbu songa mas’ul **Sardor Xodjaniyozov**

Terishga berildi: 20.04.2022  
Bosishga ruxsat etildi: 29.04.2022.  
Ofset qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 1/8.  
Rizograf bosma usuli. Tayms garniturasi.  
Adadi 200. Bahosi kelishilgan narxda.  
Buyurtma №. 14  
Hisob-nashriyot tabag‘i 25  
Shartli bosma tabag‘i 23  
UrDU matbaa bo‘limida chop etildi.

UrDU matbaa bo‘limi matbaa faoliyatini boshlagani  
haqida vakolatli davlat organini xabardor qilish to‘g‘risidagi  
Tasdiqnoma (№3802-835f-ad22-c709-fbd1-1129-1986)  
asosida faoliyat yuritadi.

Manzil: 220110. Urganch shahri, H.Olimjon ko‘chasi, 14-uy.  
Telefon/faks: (0362)-224-66-01;  
e-mail: [ilmsarchashmalari@umail.uz](mailto:ilmsarchashmalari@umail.uz)  
[ilmsarchashmalari@mail.ru](mailto:ilmsarchashmalari@mail.ru)  
Veb-sayt: [www.ilmsarchashmalari.uz](http://www.ilmsarchashmalari.uz)  
Telegram: <https://t.me/ilmsarchashmalari>